

№2

FEVRA
2025

MUNANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan
va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,
401 sahifa, fevral, 2025-yil.*

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

- Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- Toshkent davlat transport universiteti
- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
- Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
- Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Turizmning zamonaviy yo'nalishlarini rivojlantirish xususiyatlari	17
Xolmurzayev Sobir Nazarovich	
Tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining o'zbekistondagi narxlar darajasiga ta'siri.....	23
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
The main influencers of the quality assurance in tertiary education	29
Shakirova Dilfuza Tulkunovna	
Xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchi-xodimlarni boshqarish tizimini optimallashtirish.....	35
Sultonov Sanjar Jaxongir o'g'li	
O'zbekistonda tungi iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi.....	41
Normamatov Ne'mat Daminovich	
Ta'lim menejerining professionalligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	45
Abdullayev O'tkir Sadullayevich	
Ekologik buxgalteriya hisobining uslubiy jihatlari.....	57
Hatidje Nasirova	
Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda marketing yondashuvi.....	65
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Infratuzilmani rivojlantirish – mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish drayveri sifatida	70
Sayfulina Alfira Feratovna	
Soliq nazorati jamoatchilik nazoratining shakli sifatida.....	79
Suvonov Hasan Sherboyevich	
Разработка интеллектуальной системы управления многостадийными технологическими процессами.....	84
Алишев Шеркузи Абдуманнонович	
Masofaviy xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish tizimini rivojlantirish	91
Tolibboyev Samad Tolibboy o'g'li	
Sug'urta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari	99
Umirov Abdusalom To'rayevich	
IoTtarmoqlari uchun optimallashtirish usullarini tahlil qilish	105
Abdug'aniyev Bekzod Burxon o'g'li	
Tarmoq xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar va usullar	110
Raxmonkulov Feruz Pardaboyevich	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish holatining matematik modeli.....	114
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Sug'urtada anderrayting xizmatini raqamlashtirish orqali sug'urta mukofoti va to'lovlarni amalga oshirishni takomillashtirish	120
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Korxonalar faoliyatini yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirish imkoniyatlari.....	128
Muxiddin Eshmuradov	
Aholi turmush farovonligini oshirishning inson omiliga ta'siri.....	133
Sharofiddin Ismatov Asatulloevich	
Soliq salohiyatini baholashning zamonaviy metodlari va ularning rivojlantirish istiqbollari	137
Jo'rayev Xusan Atamuratovich	



Ish o'rinlarini qonuniylashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari.....	143
Dilshod To'rayev	
Davlat tashkilotlarida g'aznachilik va davlat xaridlari bilan bog'liq jarayon holatining tahlili.....	147
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
Iqtisodiy transformatsiyalashuv sharoitida aholi bandligini ta'minlashning ayrim masalalari.....	152
Salomat Norova	
Moliyaviy sektorni soliqqa tortish.....	159
Komolov Odiljon Sayfidinovich	
Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirishda bojxona menejmentini shakllantirish metodikasi.....	165
Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tuxbabayev Jamshid Sharafetdinovich	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini rivojlantirish istiqbollari.....	171
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Mamlakatda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy jihatlar.....	177
Azamatov Po'lat To'liqunovich	
Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiyotidagi tarkibiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	183
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari.....	189
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Asosiy vositalarni audit obyekti sifatida tasnifi va tavsifi.....	196
Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna	
Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirishga kreativ yondashuvning samarali tadbirlari.....	201
Rajabbaeva Dildora Zakirovna	
Роль цифровизации в обеспечении экономической безопасности предприятий.....	206
Махмудова Гулжахон Немаджоновна, Жанызакова Шахноза Мажит кизи	
Transport korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini takomillashtirish masalalari.....	215
Jabbarov Umarbek Rustambekovich, Rustamova Dilnura Umarovna	
To'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini baholash asosida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	220
Sadriddinova Nigora Khusniddinovna	
Uzum yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholash.....	227
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
Совершенствование управленческого учета в узбекистане: проблемы, интеграция и перспективы развития.....	236
Киличева Ф.Б.	
Tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'llari.....	241
Muxitdinov Ulugbek Diyarovich	
Tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlarni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	246
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Korxonalarni inqirozga yetaklovchi omillar va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar.....	255
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy dasturiy ta'minotning roli.....	260
Mamatov Maxtumquli Jumanazarovich	



Qoyali zaminlarda gravitatsion to'g'onlar tasnifi	264
Maksimov Dilmurodbek Erkinjonovich	
Improvement of financing the innovation projects of business entities.....	270
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llari.....	278
Rustamov Eldor Baratovich	
Xarajatlar tushunchasining iqtisodiy mohiyati va hisobga olishning amaliy jihatlari.....	285
Aytimbetov Qoyshibek Orazbekovich	
Investitsion loyihalarni baholashda yuzaga keluvchi risklarni tahlil qilish va bartaraf etish yo'llari.....	291
Xurramova Madina Mansur qizi	
O'zbekistonda aholining unumli bandligi darajasini oshirishdagi huquqiy jihatlar.....	300
Qurbonov Samandar Pulatovich	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari foydasini shakllantirish va ko'paytirish masalalari	309
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
Xorij tajribasi asosida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish.....	316
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tarmoq va sohalarning o'rni	322
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Xudoynazarov Dilbek Baxodir o'g'li	
Korxonalarda qimmatli qog'ozlar audit masalalarini rivojlantirish	327
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Banklarda moliyaviy xavfsizlikning o'ziga xos jihatlari	335
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Turizmda transport logistikasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	340
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Sayohatchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish: raqamli xavfsizlik va qonunchilik o'zaro ta'siri	345
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Yangi konstruktiviy aylanuvchi stolga ega tikuv mashinasida tajribalar tahlili	351
Amonov Abdurahmon Rafiq o'g'li, Muxamedjanov Mironshoh Mansurjon o'g'li	
Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish metodologiyasi AQSH tajribasi	356
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
Пути обеспечения инклюзивного роста республики узбекистан	363
Аскарова Мавлуда Турабовна	
Mamlakatimizdagi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili	372
Baxriddinov Sharofiddin	
Elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatchiligini tashkil etish uslubiyatining o'ziga xos xususiyatlari	382
Urazaliev Kamoliddin Tajikulovich	
Oliy ta'lim muassasalarida budget mablag'laridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslari.....	389
Murtozaev Sanjar O'tkir o'g'li	
Sug'urta institutlarining innovatsion yo'nalishlari: nazariy va uslubiy asoslar.....	394
Sherov Sanjar Radjabovich	
Davlat xaridlari tizimida ekologik markirovkalashni joriy etish masalalari.....	394
Ro'zimurodova Charos O'ral qizi	

DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA EKOLOGIK MARKIROVKALASHNI JORIY ETISH MASALALARI

Ro'zimurodova Charos O'ral qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda ekologik markirovkalash asosida davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan o'rganiladi. Maqolada ikkita asosiy taklif taqdim etiladi: birinchisi - tender baholash jarayonida ishtirokchi to'plagan umumiy ballning 5 foizi miqdorida ekologik markirovkalash hujjatining har bir turi uchun ustama ball hisoblash tartibini huquqiy jihatdan mustahkamlash; ikkinchisi - ekologik markirovkali mahsulot yetkazib beruvchilariga vositachilik yig'imidan 30 foiz chegirma belgilash va ulardan qo'shimcha zakalat mablag'lari talab etmaslik orqali ikki yo'nalishli iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmini joriy etish. Xorij davlatlari tajribasi tahlil qilingan holda O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologik markirovkalash; davlat xaridlari; tender baholash tizimi; ustama ball; vositachilik yig'imi; zakalat mablag'lari; yashil xaridlar; barqaror rivojlanish.

Abstract. This article scientifically studies the issues of improving the public procurement system based on eco-labeling in Uzbekistan. The article presents two main scientific proposals: the first is to legally strengthen the procedure for calculating bonus points for each type of eco-labeling document in the amount of 5 percent of the total score scored by the participant during the tender evaluation process; the second is to introduce a two-way economic incentive mechanism by setting a 30 percent discount on the brokerage fee for suppliers of eco-labeled products and not requiring additional deposit funds from them. Practical recommendations for Uzbekistan are developed based on the analysis of the experience of foreign countries.

Keywords: eco-labeling; public procurement; tender evaluation system; bonus points; brokerage fee; deposit funds; green procurement; sustainable development.

Аннотация. В данной статье научно исследуются вопросы совершенствования системы государственных закупок на основе экомаркировки в Узбекистане. В статье представлены два основных научных предложения: первое – законодательное ужесточение процедуры начисления бонусных баллов за каждый вид документа об экомаркировке в размере 5% от общей оценки участника в процессе оценки тендера; второе – введение двустороннего механизма экономического стимулирования путем установления 30-процентной скидки на брокерское вознаграждение для поставщиков экомаркированной продукции и отмены требования о внесении с них дополнительных депозитных средств. На основе анализа опыта зарубежных стран разработаны практические рекомендации для Узбекистана. Ключевые слова: экомаркировка; государственные закупки; система оценки тендеров; бонусные баллы; брокерское вознаграждение; депозитные средства; экологически чистые закупки; устойчивое развитие.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida davlat xaridlari milliy yalpi ichki mahsulotning katta qismini tashkil etib, iqtisodiy siyosatning muhim dastagi hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda ushbu dastakni atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarida qo'llash, ya'ni “yashil davlat xaridlari” (Green Public Procurement — GPP) konsepsiyasini amaliyotga joriy etish dunyoning ko'plab mamlakatlarida ustuvor yo'nalishga aylanib bormoqda [1]. Ekologik



markirovkalash esa ushbu konsepsiyaning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralmoqda: u mahsulotning atrof-muhitga ta'siri haqida ishonchli, mustaqil tekshirilgan axborot berishi bilan davlat xaridchilariga ekologik jihatdan ilg'or yetkazib beruvchilarni tanib olish imkonini yaratadi [7].

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot yo'nalishida muhim qadamlar qo'yimoqda. 2030-yilgacha bo'lgan davrda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi [2] va Parij iqlim kelishuvidan kelib chiqadigan majburiyatlar mamlakat davlat xaridlari tizimini ekologik modernizatsiya qilishni zaruriy shartga aylantirmoqda. Biroq "Davlat xaridlari to'g'risida"gi amaldagi qonun [3] ekologik markirovkali mahsulotlarni tender jarayonida rag'batlantiruvchi maxsus huquqiy mexanizmlarni hozircha nazarda tutmaydi. Bu boradagi huquqiy bo'shliq mavzuni tadqiq etishni dolzarb va amaliy zarurat sifatida belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik markirovkalash hujjati mahsulot yoki xizmatning mustaqil tashkilot tomonidan tasdiqlangan ekologik standartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi rasmiy sertifikat hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda ISO 14024:2018 [7] standartiga muvofiq Type I ekologik markirovkalar (EU Ecolabel, Nordic Swan, Blue Angel va boshqalar) eng ishonchli tizim sifatida tan olingan. Bu markirovkalar mahsulotning butun hayot davri — ishlab chiqarish, foydalanish va utilizatsiya bosqichlarida — atrof-muhitga ta'sirini baholaydi [7].

Xorij davlatlarining tajribasi ekologik markirovkani davlat xaridlariga integratsiya qilishning turli modellarini namoyish etadi. Yevropa Ittifoqida "Most Economically Advantageous Tender" tamoyili asosida tender baholashda ekologik mezonlar alohida ball sifatida hisoblanadi va bu amaliyot normativ jihatdan mustahkamlangan [8]. Janubiy Koreyada esa 1994-yildan beri amal qilayotgan yashil xaridlar qonunchiligi ekologik markirovkali mahsulotlarni ustuvor xarid qilishni majburiy belgilaydi; natijada ekologik mahsulotlar ulushi davlat xaridlarida 48 foizga yetgan [9]. OECD ma'lumotlariga ko'ra, rag'batlantirish mexanizmlari mavjud bo'lgan mamlakatlarda yashil xaridlar hajmi bo'lmagan mamlakatlarga qaraganda o'rtacha 2,3 baravar yuqori [12].

O'zbekistonda esa yashil davlat xaridlari sohasidagi tadqiqotlar hali dastlabki bosqichda bo'lib [13], ekologik markirovkani xaridlar jarayoniga integratsiya qilish masalasi ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Shu boisdan quyida taklif etilayotgan mexanizmlar mamlakatimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda ekologik markirovkalash asosida davlat xaridlari tizimini takomillashtirishning yangi mexanizmlarini ilmiy asoslash va ularni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy, tizimli va huquqiy tahlil metodlari qo'llanilgan; xorij davlatlari tajribasi [4, 8, 9, 12] va O'zbekistonning normativ-huquqiy bazasi [3, 5] o'rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida tender takliflarini baholash jarayonida ekologik barqarorlik tamoyillarini rag'batlantirish maqsadida ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan ekologik markirovkalash (eko-yorliqlash) hujjatlarini baholash tizimiga integratsiya qilish maqsadga muvofiq, degan ilmiy xulosaga keldik. Fikrimizcha, ekologik markirovkalash hujjatining har bir alohida turi uchun ishtirokchining asosiy baholash mezonlari bo'yicha to'plagan jami ballarining 5 foizi miqdorida qo'shimcha ustama ball hisoblash lozim. Bu mexanizm ekologik jihatdan mas'uliyatli ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilarni rag'batlantirish, davlat xaridlarida ekologik mezonlarning ahamiyatini oshirish hamda "yashil xaridlar" amaliyotini keng joriy etishga xizmat qiladi.

Mexanizmning asosiy xususiyatlari quyidagicha: ustama ball ekologik markirovkalash hujjati turlarining soni bilan mutanosib oshib boradi — bitta hujjat uchun 5%, ikkita hujjat uchun 10%, uchta va undan ortiq hujjat uchun 15% gacha; ustama ball hisoblash bazasi sifatida ishtirokchining texnik mezonlar bo'yicha to'plagan balli olinadi (narx balli bazaga kiritilmaydi); qo'shimcha ball ishtirokchining asosiy texnik reytingini o'zgartirmaydi — u faqat yakuniy reyting shakllanishida qo'shib hisoblanadi.

Ekologik markirovkalash hujjati sifatida quyidagilar tan olinadi: "Ekologik toza mahsulot" milliy sertifikati; ISO 14024:2018 ga mos xalqaro ekologik markirovkalar (EU Ecolabel, Nordic Swan, Blue Angel); energiya samaradorligi sertifikatlari (A va A+ sinflar); ISO 14001 atrof-muhit menejment tizimi sertifikati; O'zbekiston Respublikasi tomonidan e'tirof etilgan boshqa ekvivalent hujjatlar.

Mexanizmning iqtisodiy modeli shuni ko'rsatadiki, 5 foizlik ustama ball tender natijasiga real ta'sir ko'rsatishi uchun umumiy baholash tizimida narx mezonining ulushi 60–70 foizdan oshmasligi lozim [6]. Bu holat tender hujjatlarini tayyorlashda narx va sifat mezonlari o'rtasidagi nisbatni qayta ko'rib chiqishni ham talab etadi.

Mexanizmni huquqiy jihatdan mustahkamlash uchun "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunga tegishli modda

kiritilishi, Davlat xaridlari agentligi tomonidan esa ekologik markirovkalash hujjatlarining tasdiqlangan ro'yxati ("yashil ro'yxat") ishlab chiqilishi va standart tender shakllari yangilanishi tavsiya etiladi [3].

Ilmiy izlanishlar davomida davlat xaridlari tizimida ekologik barqarorlik tamoyillarini keng joriy etish hamda "yashil xaridlar" amaliyotini rag'batlantirish maqsadida ekologik markirovkalash (eko-yorliqlash) hujjatiga ega bo'lgan ishtirokchilar va ekologik markirovkalash hujjatiga ega tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni taklif etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ikki yo'nalishli iqtisodiy imtiyozlar mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq, degan ilmiy xulosaga keldik.

Birinchi imtiyoz yo'nalishi — vositachilik yig'imi bo'yicha chegirma. Ekologik markirovkali mahsulotlar yetkazib beruvchilari tender platformasiga to'laydigan vositachilik yig'imi miqdoridan 30 foiz chegirma olish huquqiga ega bo'ladi. Mazkur chegirma ekologik markirovkani sertifikatlash xarajatlarini qisman qoplash va yashil mahsulotlar bozor raqobatbardoshligini oshirish maqsadini ko'zlaydi.

Ikkinchi imtiyoz yo'nalishi — zakalat mablag'laridan ozod qilish. Ekologik markirovkalash hujjatiga ega ishtirokchilardan tender ishtirokchiligi uchun odatda talab etiladigan qo'shimcha zakalat mablag'lari kiritish majburiyati olib tashlanadi. Bu chora, ayniqsa, moliyaviy resurslari cheklangan kichik va o'rta korxonalar uchun davlat xaridlari bozoriga kirishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Ikki yo'nalishning birgalikdagi ta'siri: iqtisodiy hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, vositachilik yig'imidan 30 foizlik chegirma va zakalat majburiyatidan ozod etish kombinatsiyasi ekologik markirovkali yetkazib beruvchilar uchun tender jarayonidagi umumiy xarajatlarni 12–18 foizga qisqartiradi [11]. Bu esa ekologik sertifikatga ega bo'lish uchun sarflanadigan qo'shimcha xarajatlarni (o'rtacha 5–15 foiz) qoplab, sof iqtisodiy ustunlik yaratadi.

Ushbu mexanizmini amalga oshirish uchun elektron xaridlar platformasiga (xarid.uz) quyidagi texnik o'zgartirishlar kiritilishi lozim: ekologik markirovkalash hujjatini ro'yxatga olish va tekshirish moduli; vositachilik yig'imini avtomatik hisoblashda chegirmani qo'llash funksiyasi; zakalat mablag'lari talablarini markirovka holati asosida farqlash tizimi.

Ikkala mexanizmning sinergik ta'siri natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kutiladi. Bozor darajasida: ekologik sertifikatlashga investitsiya qilgan korxonalar tender jarayonida aniq va o'lchanadigan iqtisodiy ustunlikka ega bo'ladi, bu esa sertifikatlash xarajatlarining oqlanishini ta'minlab, mahalliy ishlab chiqaruvchilar orasida ekologik sertifikatlash amaliyotining kengayishiga turtki bo'ladi [4].

Davlat darajasida: davlat xaridlarida ekologik markirovkali mahsulotlar ulushining oshishi mamlakatning 2030-yilga qadar CO₂ emissiyasini 35 foiz kamaytirish bo'yicha Parij kelishuvida belgilangan maqsadga [10] erishishiga hissa qo'shadi. Bundan tashqari, taklif etilayotgan mexanizmlar kichik va o'rta biznesni davlat xaridlari bozoriga jalb qilish orqali raqobat muhitini kuchaytiradi [15].

Shu bilan birga, joriy etish jarayonida ba'zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin: mahalliy sertifikatlash organlarining quvvati cheklanganligi, ekologik hujjatlarni soxtalashtirish xavfi va ba'zi mahsulot turlarida ekologik markirovkali raqobatchilar sonining yetarli emasligi. Ushbu muammolar uchun yechim sifatida mustaqil audit tizimi, sertifikatlash organlarining akkreditatsiyasini kuchaytirish va o'tish davri (2–3 yil) belgilash tavsiya etiladi [12].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda ekologik markirovkalash asosida davlat xaridlarini takomillashtirish borasida o'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, hozirgi kunda O'zbekiston davlat xaridlari qonunchiligida ekologik markirovkani rag'batlantirishga qaratilgan maxsus mexanizmlar mavjud emas; bu holat yashil xaridlarning amaliyotga keng joriy etilishini sekinlashtirmoqda.

Ikkinchidan, tender baholash tizimida ekologik markirovkalash hujjatining har bir turi uchun 5 foizlik ustama ball berish mexanizmi raqobat muhitini buzmasdan ekologik jihatdan ilg'or yetkazib beruvchilarni tanlash jarayonida aniq va o'lchanadigan iqtisodiy ustunlik yaratadi. Bu mexanizm xorij amaliyotida keng sinovdan o'tgan tamoyillarga asoslanadi [8, 9].

Uchinchidan, ekologik markirovkaga ega ishtirokchilarga vositachilik yig'imidan 30 foiz chegirma berish va qo'shimcha zakalat mablag'laridan ozod etish mexanizmi yetkazib beruvchilarning ekologik sertifikatlashga bo'lgan iqtisodiy qiziqishini sezilarli darajada oshiradi hamda kichik va o'rta biznes uchun davlat xaridlari bozoriga kirishni osonlashtiradi.

To'rtinchidan, ikkala mexanizmning sinergik ta'siri natijasida O'zbekiston davlat xaridlari bozorida ekologik markirovkali mahsulotlar ulushining oshishi, mahalliy sertifikatlash xizmatlari bozorining rivojlanishi va pirovardida atrof-muhitga salbiy ta'sirning kamayishi kutiladi.

Fikrimizcha, mazkur mexanizm bir tomondan, ekologik markirovkalash hujjatiga ega bo'lgan davlat xaridlari ishtirokchilariga xarid jarayonlarida qo'shimcha preferensiyalar berishni, ikkinchi tomondan esa ekologik markirovkalangan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va yetkazib berishni iqtisodiy jihatdan rag'bat-



lantirishni nazarda tutishi lozim. Bunda soliq imtiyozlari, yig'imglar bo'yicha preferensiyalar, davlat xaridlarida ustuvorlik berish hamda boshqa iqtisodiy rag'batlantirish choralarini qo'llash tavsiya etiladi.

Yuqoridagi takliflar davlat xaridlari tizimida ekologik jihatdan mas'uliyatli ishlab chiqarish va iste'molni qo'llab-quvvatlash, korxonalarni ekologik standartlarga muvofiq faoliyat yuritishga undash, davlat xaridlarida ekologik talablarning ulushini oshirish hamda mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- European Commission. (2008). *Public Procurement for a Better Environment*. Communication from the Commission to the European Parliament, the Council, the European Economic and Social Committee and the Committee of the Regions, COM(2008) 400 final. Brussels: European Commission.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4539502>
- O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5382974>
- Brammer, S., & Walker, H. (2011). Sustainable procurement in the public sector: An international comparative study. *International Journal of Operations & Production Management*, 31(4), 452–476. DOI: 10.1108/01443571111119551.
- O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi 754-XII-son "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-107115>
- Preuss, L. (2009). Addressing sustainable development through public procurement: The case of local government. *Supply Chain Management: An International Journal*, 14(3), 213–223. DOI: 10.1108/13598540910954557.
- International Organization for Standardization. (2018). *ISO 14024:2018. Environmental labels and declarations — Type I environmental labelling — Principles and procedures*. Geneva: ISO.
- European Parliament and Council of the European Union. (2014). Directive 2014/24/EU of 26 February 2014 on public procurement and repealing Directive 2004/18/EC. *Official Journal of the European Union*, L 94, 65–242.
- United Nations Environment Programme & Korea Environmental Industry and Technology Institute. (2019). *Green Public Procurement in the Republic of Korea: A Decade of Progress and Lessons Learned*. Nairobi: UNEP.
- United Nations Framework Convention on Climate Change. (2021). *Uzbekistan's Updated Nationally Determined Contribution*. Bonn: UNFCCC Secretariat.
- Erdmenger, C. (Ed.). (2003). *Buying into the Environment: Experiences, Opportunities and Potential for Eco-Procurement*. Sheffield: Greenleaf Publishing.
- OECD. (2015). *Going Green: Best Practices for Sustainable Procurement*. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/3291acbf-en.
- World Bank. (2021). *Green Public Procurement: An Overview of Green Reforms in Country Procurement Systems*. Washington, DC: World Bank.
- Walker, H., & Brammer, S. (2012). The relationship between sustainable procurement and e-procurement in the public sector. *International Journal of Production Economics*, 140(1), 256–268. DOI: 10.1016/j.ijpe.2012.01.008.
- OECD. (2018). *SMEs in Public Procurement: Practices and Strategies for Shared Benefits*. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/9789264307476-en.

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100